



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 14-avgust, № 165 (9060)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

TO‘QIMACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YANGI REJA VA USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida to‘qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni ishga solish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

To‘qimachilik mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmining 3 foizini, sanoatning 14 foizini yaratayotgan yirik tarmoqdir. Bu yo‘nalishda 500 mingdan ortiq odamlar ish bilan band. So‘nggi besh yilda 3,5 milliard dollarlik 396 ta korxona ishga tushdi. Ishlab chiqarish hajmi 10 milliard dollarga yetdi.

Lekin dunyo bozoridagi o‘zgaruvchan vaziyat, talab va narx pasayishi sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tezkor choralar ko‘rishni taqozo etmoqda.

So‘nggi uch yilda jahonda paxta narxi tonnasiga o‘rtacha 3 ming dollardan 1,5 ming dollarga tushdi. Bunga moslashish uchun 2022-2023-yillar uchun paxta xomashyosiga berilgan imtiyozli kredit 3-marta uzaytirildi, o‘tgan yili har bir tonnaga 1 million so‘mdan subsidiya berildi.

Ko‘plab to‘qimachilik korxonalarining tijorat kreditidan qarzдорligi mavjud. Atigi 16 foiz korxona xalqaro sertifikatga ega. Oqibatda ularning tashqi bozorda raqobat qilishi qiyin kechmoqda.

O‘zbekistonga nisbatan “paxta boykoti” bekor qilinganiga ancha bo‘ldi. Shuningdek, mamlakatimiz Yevropaga bojsiz eksport qilish imkonini beruvchi “GSP+” imtiyozlar tizimiga qo‘shilgan. Lekin brendlar bilan hamkorlik va eksport miqyosi bunga yarasha emas.

Sohadagi shu kabi muammolarni o‘rganish uchun, Prezident topshirig‘iga ko‘ra 200 dan ortiq

tadbirkorlar bilan muloqot qilindi. Yig‘ilishda ularning tahlilidan kelib chiqib yangi imkoniyat va vazifalar belgilandi.

Avvalo, moliyaviy sog‘lomlashtirish va tannarxni kamaytirish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Bu yil klasterlarning 2022-2023-yillar hosili uchun kreditdan qarzдорligi garov qo‘yish sharti bilan besh yilgacha uzaytirilgan edi. Endi 1-avgustdan garovi tayin klasterlar faqat asosiy qarzni to‘laydi. Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi va banklarga hisoblanadigan foizlar esa asosiy qarz to‘liq qoplangandan keyin undiriladi. Agar klasterlar ham asosiy qarz, ham foizini o‘z vaqtida to‘lasa, foizning jamg‘armaga ketadigan qismining yarmi tadbirkorga qaytariladi.

Shuningdek, klasterlarga 2022-2023-yillar hosili uchun berilgan kredit bo‘yicha 1-avgust holatiga yuzaga kelgan 377 milliard so‘mlik penyadan voz kechiladi. Tijorat kreditidan majburiyati bo‘lgan 144 ta korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishga ko‘maklashiladi.

Bu yilgi paxta hosilini o‘z vaqtida terib olish uchun fermerlarga tonnasiga 1 million so‘mdan subsidiya beriladi. Korxonalar o‘z mablag‘i hisobidan paxta yetishtirsa yoki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi qoplab beriladi.

To‘qimachilik zanjiridagi barcha korxonalarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz qilib belgilanadi. Bunda ijtimoiy reestr bo‘yicha talab bekor qilinadi, umumiy faoliyatda to‘qimachilik

ulushiga talab esa 90 foizdan 70 foizga tushiriladi.

O‘z xodimlarining farzandlari uchun bog‘cha tashkil qilgan korxonalarga, xuddi xususiy bog‘chalardagi kabi, har bir tarbiyalanuvchiga subsidiya ajratiladi. Kalava ipning tannarxiga elektr energiyasi qiymati ham ta‘sir qilyapti. Shu bois endi korxonalarga o‘z ehtiyoji uchun o‘rnatilgan quyosh panellarini tarmoqqa ulashga ruxsat beriladi.

Bunday imkoniyatlar faoliyatni rivojlantirish uchun tayanch bo‘ladi. O‘zida tolni qayta ishlash quvvati yo‘q klasterlar ip yigiruv korxonalari bilan samarali kooperatsiya tizimini yo‘lga qo‘yishi zarur. Aks holda keyingi yildan ularning klaster maqomi bekor qilinadi va paxta hosili uchun imtiyozli kredit berilmaydi.

Hukumatga bunday klasterlar uchun jozibador moliyaviy choralar joriy qilish topshirildi.

Yig‘ilishda ishlab chiqarish va eksportni oshirish masalalari ham atroflicha tahlil qilindi.

Yurtimizda tayyorlanayotgan kalava ip va matoning narxi raqobatchilarga nisbatan o‘rtacha 10 – 15 foiz yuqori, chunki mahsulotlarimiz tarkibining 90 foizi paxta. Dunyoda esa sun‘iy tola va aralash mato ko‘p ishlatiladi.

Korxonalarimizni arzon xomashyo bilan ta‘minlash maqsadida 2028-yil 1-yanvargacha aralash mato va gazlamani bojxona bojidan ozod etish belgilandi.

Bir nechta bo‘yoq korxonalari birlashib, suv tozalash inshootini qurmoqchi bo‘lsa, xarajatining

bir qismi Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan qoplab beriladi.

Eksportchi korxonalarga tumanlarda filial ochish uchun Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan besh yil muddatga 10 milliard so‘mgacha Markaziy bank asosiy stavkasida kredit ajratiladi. Xorijlik dizayner, texnolog, konstruktor va marketologlarning oylik maoshi qoplab beriladi. Faqat 200 ta ish o‘rni ochish va munosib ish haqi to‘lashi shart.

Dunyo bozorlariga chiqishda eng muhim masala – sifat va standart. Shu bois Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga to‘qimachilik korxonalarining xalqaro sertifikat olishiga ko‘maklashib, ular sonini 300 taga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Yevropa va AQSH bozoriga tayyor kiyim-kechak eksportini kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi. Xususan, Amerikada yiliga qariyb 100 milliard dollarlik to‘qimachilik bozori bor. Mahsulotni talabga moslashtirish orqaligina unda o‘rin egallash mumkin. Shu maqsadda Nyu-York va Sent-Luis shaharlarida savdo uylari ochish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Tashqi ishlar vazirligi va elchilarga yirik brendlar bilan hamkorlik qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, ularni Toshkentda bo‘ladigan yirik ko‘rgazmaga taklif qilish topshirildi.

Korxonalar faoliyatida sun‘iy intellektni qo‘llash orqali daromadni 20 – 30 foizga oshirish masalasi “yashirin iqtisodiyot” omilini kamaytirish mumkinligi qayd etildi. Bu borada to‘qimachilik korxonalarida “ERP”

Surur

NECHUN QILMAY IFTIXOR

*Oqil odam yashar ezgu ahd uchun,
Yana kimlar Shimol, Janub, Sharq uchun.
Asli do‘stlar, yashamoqlik oliy baxt,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Vatanparvar Vatan uchun jon tikar,
Millatparvar millat uchun bir askar,
Xalqparvarlar hech o‘ylamay tiz cho‘kar,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Navoidek zot ko‘rmagan bu dunyo,
Amur Temur shonidagi nur, ziyo,
Yashab o‘tdi Buxoriy ham Ibn Sino,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*O‘zbekiston — bu o‘zbekning o‘zidir,
Yuz o‘ttiz el-elat yorug‘ yuzidir,
Ajdodlarin ibratining izidir,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Yurtin tinchin o‘ylab tunda to‘lg‘onar,
Ona tongda bolam debon uyg‘onar,
Tandirida issiq nonga o‘t yonar,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Ko‘ksim kerib nechun qilmay iftixor,
Yurt yoshlari olam uzra bayroqdor,
Oltin kondan oltin chiqar, ey ag‘yor,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.*

*Yurtboshimiz har fikrati xalq uchun,
Alloh bergan kuch, qudrati xalq uchun,
Dunyo tan olmoqda, olmasin nechun?!
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Maqtansam o‘zbekning madhi ko‘p uzoq,
Osiyo osmonin yoritgan chiroq,
Qo‘llar ko‘ksimizda, xush ko‘rdik, qo‘noq,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a‘zosi.

Mahalliy Kengashlarda

DEPUTAT UYG‘OQ BO‘LSA...

Bugungi kunda mahalliy Kengashlar faoliyati tubdan o‘zgarib, ular hududlardagi muammolarni hal etishda asosiy mas‘ulga aylanmoqda. Albatta, bu jarayon o‘z-o‘zidan amalga oshayotgani yo‘q. Buning zahirida katta sa‘y-harakatlar va tinimsiz izlanishlar turibdi.

Mazkur tuzilmani “uyg‘otishda”, sergaklantirishda Oliy Majlis Senatining amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha roli yanada mustahkamlangani. Xususan, mahalliy Kengashlar bilan muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, kengayib borayotgan vakolatlardan samarali foydalanish uchun metodologik jihatdan yangi tartibotlarni ishlab chiqish zarurati tufayli bir qator ishlar amalga oshirildi.

YENGIL SANOATNING MUHIM TARMOG‘I YANADA QO‘LLAB-QUVVATLANADI

To‘qimachilik sanoati – mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydigan yo‘nalishlardan biri. Shu ma‘noda so‘nggi yillarda ushbu sohaga davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buning sabablari bor, albatta. Avvalo, istiqbolli bo‘lgan ushbu tarmoqni katta valyuta keltiradigan tarmoqqa aylantirish mumkin. Yurtimizda xomashyo bazasi mavjud. O‘zbekiston jahondagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Bu esa to‘qimachilik sanoati uchun arzon va sifatli xomashyo bilan ta‘minlanish imkonini beradi.

Aks sado

Biroq sohada yechimini kutayotgan bir qator muammolar ham bor. Prezidentimiz raisligida to‘qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni ishga solish masalalari yuzasidan kecha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ana shu jihatlar bo‘yicha taklif va tashabbuslar, yechimlar o‘rtaga tashlandi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston iqtisodiyotining 3 foizini, sanoatning 14 foizini to‘qimachilik tarmog‘i yaratmoqda. Yig‘ilishda qayd etilganidek, so‘nggi besh yilda tarmoqda 3,5 mlrd. dollarlik 396 ta yirik korxona ishga tushdi, ishlab chiqarish 10 mlrd. dollarga yetdi. Sohada 500 mingdan ortiq odamlar band. Bu sanoatda ish o‘rniga ega aholining 20 foiziga teng.

Ammo shunga qaramay sohada ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlari sekinlashishi kuzatilmoqda, bu esa xalqaro vaziyatni inobatga olgan holda ishlab chiqarish, ish o‘rinlari hamda eksportni saqlab qolish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rishni taqozo etmoqda.

Buning sababi oddiy. Jahonda paxta kotirovkalari 2022-yildan pasayib ketayotgani klasterlar uchun muammo keltirib chiqarmoqda.

So‘nggi uch yilda narx tonnasiga 3 ming dollardan 1,5 ming dollarga tushdi. Tadbirkorlar eski qarzini yangi hosil hisobidan bira-

Nima qilsak, natijaga erishiladi?

To‘qimachilikni yanada rivojlantirish uchun e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan yo‘nalishlar yetarli. Avvalo, sohada yuksak innovatsiya va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish va ilmiy izlanishlarni qo‘llab-



Jahon savdo tashkiloti:

HUQUQIY TIZIM VA UNING QONUNCHILIK JARAYONLARI

13-avgust kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hamda bir qator davlat organlari vakillari ishtirokida Jahon savdo tashkiloti (JST)ning huquqiy tizimi va ushbu tizimning qonunchilik jarayonlari masalalariga bag‘ishlangan seminar-trening o‘tkazildi.

Семинар-тренинг

Trening quyi palataning Qonunchilikni JST bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha komissiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo‘yicha vakili hamkorligida “O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi jarayoniga ko‘maklashish” loyihasi doirasida tashkil etildi.

Unda JST masalalari bo‘yicha xalqaro darajadagi ekspertlar – JST apellyatsiya organi sobiq a‘zosi, bir qator xalqaro savdo nizolarida hay‘at a‘zosi bo‘lgan professor Piter Van den Bosh, uzoq yillar davomida JST tizimida turli rahbar lavozimlarda faoliyat olib borgan savdo masalalari bo‘yicha maslahatchi Hamid Mamdu, shuningdek, xalqaro


savdo masalalarida 35 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat olib borayotgan AQSHdagi Jons Xopkins universiteti professori hamda xalqaro savdo masalalariga ixtisoslashtirilgan “Appleton Luff” advokatlik firmasi asoschisi Artur Applton ishtirok etmoqda.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari, deputatlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo‘yicha vakili, mamlakatimizning JSTga a‘zoli bo‘yicha muzokarachilar guruhi a‘zolari, “aql markazlari” vakillari qatnashdi.



Yangi nashrlar

“YANGILANAYOTGAN PARKENT” KITOBI CHOP ETILDI



Davlatimiz rahbari xalqimiz manfaatlari, uning farovonligi yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsad-muddaosi ekanini alohida ta‘kidlab keladi. Ana shu ezgu g‘oya o‘z taqdirini Vatan taqdiri bilan uyg‘un ko‘rib mehnat qilayotgan har bir yurtdoshimizning ongu shuurida ustuvor. Yaqinda “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan “Yangilanayotgan Parkent” nomli kitobda ham ayni shu jihatlar o‘z ifodasini topgan. Unda jonajon O‘zbekistonimizda kechayotgan ulkan yangilanish va o‘zgarishlar maftunkor Parkent tumani misolida samimiy, go‘zal badiiyat bilan taqdim etilgan.

O‘zining betakror tabiati, xushhavosi, tanti va mehnatkash insonlari bilan yurtdoshlarimizning hayrat va havasini o‘zigga jalb etayotgan Parkent keskin ijobiy o‘zgarishlar, islohotlar davriga qadam qo‘ygani, bu maftunkor go‘shani yanada rivojlantirish uchun yangi kuch va imkoniyatlar safarbar etilayotganiga xalqimiz guvoh bo‘ldi.



MUAZZAM G‘ALABAGA BAG‘ISHLANGAN KITOB



Sport qat‘iyat, ishonch, do‘stlik, kelajak sari dadil itilish demakdir. Keyingi yillarda mamlakatimizda sportni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘z navbatida, o‘zbekistonlik sportchilar xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, g‘alabalar yurtdoshlarimiz qalbini cheksiz iftixorga to‘ldirmoqda.

Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi Osiyoning eng kuchli jamoalari ishtirok etgan saralash o‘yinlarida chinakam jasorat va matonat namunasini ko‘rsatib, tom ma‘noda ulkan g‘alabaga erishgani – Vatanimiz tarixida birinchi marta jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritgani sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Ushbu buyuk g‘alaba munosabati bilan davlatimiz rahbarining O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolariga yo‘llagan tabrigida vakillarimiz matonati va jasoratiga yuksak baho berilib, futbolchilarimiz qo‘lga kiritgan ulkan natijaning mohiyati va ahamiyati chuqur ochib berildi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

homiyligida “Adabiyot” nashriyotida chop etilgan “Bu g‘alaba – muazzam!” nomli kitobda ham sportchilarimizning ana shu tarixiy g‘alabasining ahamiyati keng aks ettirilgan.

Kitob O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolariga tabrigi bilan boshlanishi.



“YASHIRIN IQTISODIYOT” – TARAQQIYOT ZAVOLI

11-avgust kuni Prezidentimiz ishtirokida “yashirin iqtisodiyot”ga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar taqdimoti o'tkazildi. Unda sohadagi mavjud muammolar va ularni hal etishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Munosabat

Ma'lumki, “yashirin iqtisodiyot” iqtisodiyotning kuzatilmaydigan yoki yashiriladigan, noqonuniy asosga ega tarkibiy qismi bo'lib, faoliyati qonun-qoidalarni, tartib-taomillarni chetlab o'tgan holda soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lamasdan, noqonuniy foyda olishga yoki foydani oshirishga yo'natirilgan harakatlar majmuasidir. Avvallari biznesga yuqori ma'muriy bosim va aralashuv bo'lgani uchun ko'pchilik oshkora ishlashdan xavfsirar edi. So'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli qadamlar tashlandi. Ancha-

muncha sun'iy to'siqlar olib tashlandi.

“Yashirin iqtisodiyot” bilan shug'ullanuvchilarning aksariyati soliq yukidan qochib shu ishga qo'l urgan bo'lsalar, keyingi bir-ikki yilda soliq turlari 13 tadan 9 taga qisqartirilib, 100 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Soliq yuki kamaytirildi va ortiqcha rasmiylashtirish jarayonlari bartaraf etildi. Natijada “yashirin iqtisodiyot” ulushi 2019-yildagi 45 – 50 foizdan 35 foizga tushdi. Biroq bu ko'rsatkichni yanada pasaytirish – hali oldinda turgan muhim vazifalardan biri. “Yashirin iqtisodiyot”ga qarshi eng

samarali yo'l – ilg'or texnologiyalar asosida yangicha yondashuvlarni joriy etish hisoblanadi. Qaysiki sohada yangilikka qo'l urildimi, albatta, u o'z mevasini beradi. Uzoqqa bormaylik, shu yilning boshidan boshlab Toshkent shahrida jamoat transportida to'lov tizimi to'liq avtomatlashtirilgandan so'ng yo'lovchilar soni aslidagidan 30 foiz ko'proq ekani aniqlandi.

Bundan tashqari, kunlik tushum nazorati inson omilisiz olib boriladigan ayrim bozorlarda tushum 2-3 barobarga oshganligi ayon bo'lib qoldi. Bunday tajribalarni iqtisodiyotning boshqa sohasida, jumladan, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo va xizmatlar yo'nalishlarida ham joriy etish foydadan xoli emas va buni yaqin kelajakda amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

O'sha kungi taqdimotda litsenziya

va ruxsatnoma berish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish, muddatlarni qisqartirish, inson omilini kamaytirish, barcha bosqichni raqamlashtirish – ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shuningdek, soliq, bank, bojxona, kommunal xizmatlar va sertifikatlash kabi sohalarda korruptsiyaga yo'l ochayotgan omillarga chek qo'yish zarurligi qayd etildi.

Naqdsiz hisob-kitoblarga o'tish ochiqlik omilini kuchaytirishi rivojlangan davlatlar tajribasida o'z isbotini topgan. Ya'ni elektron to'lovlar va naqdsiz hisob-kitoblar rivoji fuqarolar uchun qulaylik yaratish bilan birga, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirishda ham muhim ahamiyatga ega.

E'tiborli tomoni, davlat rahbari faqat jazo choralari bilan emas, balki aholi

va tadbirkorlarda soliq madaniyatini oshirish orqali samaraga erishish mumkinligini alohida ta'kidladi. Halol mehnat va oshkora biznes pirovard natijada iqtisodiy o'sish, farovonlik va barqarorlikka xizmat qiladi.

“Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish – bu faqat raqamlar bilan bog'liq masala emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mustahkamligi, iqtisodiy ochiqlik va adolat mezonlarini ta'minlash demak. Ilg'or texnologiyalar, raqamlashtirish, korruptsiyani cheklash va soliq madaniyatini oshirish orqali esa O'zbekiston iqtisodiyotida yanada shaffof va barqaror tizimni shakllantirishga erishiladi.

O'ktamjon AXUNOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi.



INFRATUZILMA LOYIHALARI HOLATI – XALQ VAKILLARI NAZORATIDA

Shu yilning 16-iyun kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan bunyod etilayotgan ayrim infratuzilma obyektlari qurilishi kechikayotgani ko'rsatib o'tilib, bu borada ustuvor vazifalar belgilab berilgandi. Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi mazkur masalada bir qator nazorat-tahlil tadbirlarini olib bormoqda.

Xususan, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida ayni vaziyatni o'rgandi. Kechikayotgan ishlar tahlil qilindi, zarur tavsiyalar berildi.

Qo'mita bu borada vazirlik va idoralarning axborotini ham eshitdi. Energetika vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, “O'zsuvta'minot” AJ mas'ullari taqdim etgan ma'lumotlar bo'yicha deputatlar o'z munosabatlarini bildirib, har bir kechikayotgan obyekt hududlarda aholining turli e'tirozlariga sabab bo'layotganini ta'kidlab o'tishdi.

“Caylovchilar bilan uchrashuvlar davomida bu masala doimiy diqqat e'tiborimizda”, dedi xalq vakillari.

Ijrosi kechikayotgan loyihalar yuzasidan tender, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish, nazorat va monitoringni qat'iy tartibda tashkil etish yuzasidan aniq takliflar bildirildi.

“Xalq so'zi”.

Jahon savdo tashkiloti:

HUQUQIY TIZIM VA UNING QONUNCHILIK JARAYONLARI

Mazkur tadbiridan ko'zlangan maqsad xalqaro savdoni huquqiy tartibga solish, JST huquqiy tizimi asoslarini, shuningdek, milliy qonunchilikni JST bitimlari qoidalariga uy'unlashtirish masalalari bo'yicha seminar ishtirokchilarining salohiyatini oshirishdan iborat.

Trening davomida ishtirokchilar xalqaro savdodagi tarifi, shuningdek, texnik tartibga solish, sanitar va fitosanitar choralari, subsidiyalash va demping masalalari kabi notarif choralar bo'yicha asosiy qoidalar, ularni qo'llash, xalqaro xizmatlar savdosini tartibga solishning o'ziga xosligi, xalqaro savdoning intellektual mulk huquqi bilan bog'liq jihatlarini, JST doirasida xalqaro iqtisodiy nizolarni hal qilish borasida to'liq ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Seminar qatnashchilari, shu bilan birga O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini yakuniga yetkazishda qonunchilik islohotlarining o'rni bo'yicha fikr almashib, bu borada qonun ijodkorligi masalasida ilg'or xalqaro tajriba haqida to'liq ma'lumot oldilar.

Qayd etilganidek, mazkur seminar-trening O'zbekistonning JSTga qo'shilishi jarayonini yanada jadallashtirish, mamlakatimizning mazkur ko'p tomonlama xalqaro savdo tizimi a'zolari yaratib beradigan imkoniyatlaridan samarali foydalanish borasida milliy parlament tomonidan qonunchilik islohotlarini izchil ro'yobga chiqarish uchun salohiyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Seminar-trening 16-avgustga qadar davom etadi.

“Xalq so'zi”.

Senator so'rovi

FUQAROLAR OVORAGARCHILIGIGA SABAB BO'LAYOTGAN KO'PRIK QACHON TA'MIRLANADI?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi Jamshid Tursunov nomiga senator so'rovi yo'lladi.

Unda ta'kidlanishicha, senator boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent viloyatiga xizmat safari davomida aholi muammolari bilan qiziqdi. O'rganishlarda Qibray tumanining Tinchlik hamda GES Qodiriya mahallalarini bog'lovchi “10V008” Burota – GES Qodiriya – G'isht zavodi mahalliy avtomobil yo'lining “PK 3+746” qismida Bo'zsu kanal ustidan o'tuvchi ko'priklarni ta'mirlab holatda ekanini aniqlandi.

Ma'lum bo'lishicha, 2022-yildagi surunkali yog'ingarchilik va 2023-yildagi anomal sovuq natijasida ko'priklarning chetlari vayron bo'lgan. “O'zyo'lko'priklarni klasteri davlat muassasasining xulosasi hamda Qibray tumani hokimining 2025-yil 19-iyundagi farmoyishiga asosan joriy yilning 9-iyunidan boshlab avtomobillar harakati vaqtinchalik to'xtatilgan.

Ko'priklarning yopilishi Yangiyo'l, Yangiyo'l, Ma'rifat hamda Chinobod mahallalari aholisi uchun yo'l masofasi 10 – 17 kilometr uzayishiga olib kelgan va bu fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Shu bois ko'priklarni ta'mirlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish taqdim etish so'ralgan senator so'rovi yuborildi.

“Xalq so'zi”.

DEPUTAT UYG'OQ BO'LSA...

Mahalliy Kengashlar faoliyatini qayta tashkil etish, bir so'z bilan aytganda, ularni jonlantirish masalasi bejiz kun tartibiga chiqqani yo'q. Sababi yaqin yillarga qadar joylarda mahalliy Kengashlar, aniqrog'i, deputatlarning soni boru salmog'i o'ziga yarasha bo'lib, buning bir qator sabablari ham bor edi. Aksar hollarda tuman Kengashi deputatlari yiliga to'rt yoki besh marta bo'ladigan sessiyalarda hokimlik qarorlarini tasdiqlab berish uchungina mavjuddek edi go'yo.

2024-yil 2-fevral kuni davlat rahbari “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish choralar-tadbirlari to'g'risida” Farmoni imzoladi. Unda Oliy Majlis Senatiga mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish choralarini ko'rish vazifasi topshirildi. Bundan shu narsa anglashiladiki, endi yuqori vakillik organi hududlardagi quyi vakillik organlari bilan hamnafas ishlashi kerak.

Shu bois mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Senati devoni tarkibida Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi ochildi. Uning asosiy vazifasi mahalliy darajada davlat boshqaruvini aholi manfaatlariga xizmat qilish tamoyili asosida olib borish va bu yo'nalishda keng qamrovli islohotlarni izchil davom ettirishga yordam berishdan iborat qilib belgilandi.

O'tgan davr mobaynida markaz tomonidan mahalliy Kengashlar faoliyatining ko'maklashish va to'g'ri ish jarayonini tashkil etish maqsadida 20 ga yaqin namunaviy hujjatlar ishlab chiqilib, yangi saylangan deputatlarga mahalliy Kengashdagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yib olishlari uchun o'quvlar uyushtirildi. Bundan tashqari, mahalliy Kengashlarning hududlarni rivojlantirish, mahalliy byudjetni shakllantirish, o'zgartirishlar kiritish, ularning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, aholi murojaatlari bilan ishlash va ularning muammolariga yechim topish, hududiy davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishlari borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

Senat tomonidan, eng avvalo, mahalliy Kengashlar faoliyatining

huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, shu maqsadda 3 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta Farmoni, Senat va Senat Kengashining 20 dan ziyod qarorlari loyihalarini ishlab chiqildi.

Oliy Majlis Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi qarorida hududlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatish hamda mahallalardagi muammolarni hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettilligi” asosida o'zaro hamkorligini amalga oshirish, shuningdek, respublika darajasidagi muamoli masalalarni parlament yuqori palatasiga taqdim etish tizimlari tasdiqlandi. Shunga asosan joriy yil 20-yanvar kuni Senat tomonidan “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettilligi” bilan o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish masalalari” mavzuida mahalliy Kengashlar kotibiyatlari mudirlari va xodimlari uchun o'quv-seminar uyushtirildi. Tadbirda joylardagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va loyihalarini manzilli o'rganish, shuningdek, samarali nazoratni amalga oshirish bo'yicha “Mahalla yettilligi” – Kengash – Senat” uch bo'g'inli hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi.

“Mahalla – Kengash – Senat” tamoyiliga asosan senatorlar va mahalliy Kengash deputatlari tomonidan “mahalla yettilligi” bilan hamkorlikda 5,5 mingga yaqin mahallalarga borilib, fuqarolar qabullari tashkil etildi. Mahallalardagi o'rganishlar va fuqarolar qabullari davomida 8,5 mingdan ziyod muammolar aniqlangan.

Shu o'rinda bir mulohaza. Sodda til bilan aytadigan bo'lsak, parlament qonunlar uchun mas'ul. Sababi qonun ijrochisi ham, uni qabul qiluvchi ham parlament palatalari. Yaratilayotgan har bir qonunda jamiyat va davlatning, jamiyat a'zolarining manfaatlari to'laqonli aks etishi kerak. Bu kelajakda o'sha hujjatning samarali ishlashini ta'minlaydigan omildir. Shuning uchun qonunlarda eng quyi, eng inja holatlar ham e'tiborda tutilishi kerakki, ertaga hech kim qonun doirasidan chetda qolib

ketmasin. Bu narsani esa bir joyda turib, kabinetda o'tirib yoki markazdan chekkaga chiqmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, parlamentning quyi vakillari hisoblanmish mahalliy Kengash deputatlarining mas'uliyati katta. Shu paytga qadar saylovchilari yaxshi tanimagan deputatlar endi bevosita xalqning ichiga kirib, uning barcha jihatidan xabardor bo'lishlari talab etiladi.

Keyingi paytlarda guvohi bo'layotganimiz shuki, parlament yuqori palatasining yig'inlarida, qonunlar muhokamasi paytida yoki yalpi majlislarda mahalliy deputatlarining ham fikrlari tinglanmoqda. Xuddi shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida ham bu holatni kuzatish mumkin. Demak, mahalliy Kengashlarni faollashtirish, ta'bir joiz bo'lsa, ularni “uyg'otish” bugun Oliy Majlis Senati kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylangan.

Senatning Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi tashkil etilib, u mahalliy Kengash organlariga yaqindan yordam berib kelmoqda. Mazkur komissiya ma'lumotlariga ko'ra Senat hamda Senat Kengashining mahalliy Kengashlar faoliyatiga oid qarorlari xatlovdan o'tkazilib, 11 ta qaror o'z kuchini yo'qotgan deb topilgan va 24 ta qarordagi o'z ahamiyatini yo'qotgan bandlar bekor qilinishi ta'minlangan.

Mahalliy Kengashlarning turli qonunchilik hujjatlarida tarqoq holda joylashgan 150 ga yaqin vakolat, vazifa va funksiyalarining Yagona reestri ishlab chiqildi hamda “E-Kengash” elektron platformasiga joylashtirilib, ushbu reestr yangi qonunchilik hujjatlarini asosida doimiy ravishda yangilab borilmoqda.

Senat say'harakati bilan yo'lga qo'yilgan yana bir tashabbus – bu hududlarni ijtimo'iy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan dasturlar

Yuqorida tilga olinganlardan maqsad bitta, u ham bo'lsa mahalliy Kengashlar faoliyatini yanada jonlantirish va ularni haqiqiy ma'nod xalqning ishonchini qozongan vakillariga aylantirish. Aytish joizki, bugun xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi yangi vazifalar berildi, vakolatlari yanada kengaydi, jamiyat oldidagi mas'uliyati kuchaydi. Bu esa samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Hamroquq QARSHIYEV (“Xalq so'zi”).

QONUN BARQAROR ISTE'MOL BOZORI VA XAVFSIZ MAHSULOT KAFOLATIGA XIZMAT QILADI

Chorvachilik – narx-navo barqarorligida muhim soha. Tarmoqni jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatlí go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Sharh

Bugungi kunda respublikamiz hududida 41,3 mln. bosh uy hayvoni mavjud. Yirik va mayda shoxli mollarning faqat 10 foizi fermer xo'jaliklarida, qolgan 90 foizi esa dehqon hamda shaxsiy xo'jaliklarda boqilmoqda.

So'nggi yillarda barcha sohada bo'lgani kabi veterinariya va chorvachilikda ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Bu borada Prezidentimizning 5 ta Farmoni, 33 ta qarori ichki iste'mol bozorini go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ochig'i, ilgari bu kabi imkoniyatlar bo'lmagan. Sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor sababli o'tgan sakkiz yil chorvadorlar uchun chinakam qo'llab-quvvatlash davri bo'ldi. Davlatimiz rahbarining doimiy e'tibori natijasida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar soni ortib, chorvachilik komplekslari tomonidan tirik vaznda ko'plab tonna go'sht va sut mahsulotlari yetishtirilayapti.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 6-avgust kuni imzolangan “Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish to'g'risida”gi Qonun mamlakatimizga hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishining oldini olish, veterinariya osoyishtalikni ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'ldi.

Hujjat Qonunchilik palatasida muhokamalar jarayonida deputatlar, olimlar, mutaxassislar va ekspertlarning zarur taklif hamda tavsiyalari asosida takomiliga yetkazilgan edi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh, ushbu qonunni ishlab chiqish va qabul qilishga qanday zarurat tug'ildi? U bilan hayvonlarni identifikatsiyalash, ro'yxatga olish uchun qanday imkoniyatlar yaratilmoqda?

Avvalo, aytish kerakki, har bir uy hayvonini nazoratga olish, uning salomatlik kartasini yuritish orqali oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi. Har bir chorva moli tug'ilganidan keyin ma'lum muddat o'tgach veterinariya ro'yxatiga olinishi kerak.

Butunjahon hayvonlar salomatligi

tashkiloti (WOAH)ning ko'rsatmasiga asosan hayvonlarni identifikatsiya qilish qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi belgilangan.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish tizimining joriy etilishi orqali oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi. Iste'mol uchun chiqariladigan barcha mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, hayvon egalarining hayvonlarga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqlarini yanada kafolatlashga imkoniyat yaratiladi.

Mazkur hujjatning asosiy maqsadi – hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda mamlakatimizda chorva hayvonlarini identifikatsiya qilish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish, hayvonlarda yuqumli kasalliklarning oldini olish hamda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash masalalari belgilandi. Hujjatga ko'ra Vazirlar Mahkamasi hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish sohasidagi davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Hayvonlarning hisobini yuritish, ular nasli bilan bog'liq va sog'ligi to'g'risidagi yagona elektron tizim yaratilmoqda. Hayvonlarni identifikatsiya qiluvchi, ro'yxatga oluvchi va kuzatuvchi mutaxassislarning, identifikatsiya raqamini

saqlovchi atribut ishlab chiqaruvchi va hayvon egalarining huquq va majburiyatlari ham belgilab berildi.

Respublika hududida saqlanayotgan va urchitilayotgan uy hayvonlarini identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va so'yliganda (nobud bo'lganda), eksportga jo'natilganda ro'yxatdan chiqarishning

hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar elektron axborot tizimiga kiritib boriladi. Eng muhimi, aholiga iste'mol uchun yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashning kafolatli tizimi yaratiladi. Hayvonga egalik qilishning huquqiy asosi paydo bo'lib, hayvonlarning migratsiyasi ustidan monitoring o'rnatiladi.

Identifikatsiyadan hayvon egalariga ortiqcha yuk tushmaydi. Ya'ni bir martalik identifikatsiya to'liq bepul bajariladi. Xonadon egalarining chorva hayvonlari tug'ilganda, sotganda yoki so'yganda smartfon telefoni orqali yoki og'zaki murojaati bilan ro'yxatga olinadi va ro'yxatdan chiqariladi. Bunda esa hech qanday mablag' talab etilmaydi.

majburiy tartibi joriy etilyapti. Unga ko'ra qoramol, qo'y va echklari, tuyalarning bolalari tug'ilganidan 14 kundan keyin 1 oydan kechikmasdan, hayvonlar import qilinganda esa 21 kundan kechikmasdan identifikatsiya amaliyoti bajariladi.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish ishlari, shu jumladan, vizual yoki elektron birkalarni o'rnatish veterinariya xizmati tomonidan amalga oshirilib, identifikatsiyalangan

Har bir bosh chorva to'g'risidagi ma'lumotlar esa yagona elektron bazaga kiritiladi va tirik chorva mollari savdosi manzillari amalga oshiriladi. Chorva hayvonlari saqlanishi va migratsiyasi tartibga olinib, doimiy monitoring qilish tizimi yaratiladi. Eng muhimi, identifikatsiyadan hayvon egalariga ortiqcha yuk tushmaydi. Ya'ni bir martalik identifikatsiya to'liq bepul bajariladi.

Xonadon egalarining chorva hayvonlari tug'ilganda, sotganda yoki so'yganda smartfon telefoni orqali yoki og'zaki murojaati bilan ro'yxatga olinadi va ro'yxatdan chiqariladi. Bunda esa hech qanday mablag' talab etilmaydi.

Qonun bilan Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi qoshidagi Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish markazining vakolatlari ham belgilab qo'yildi. Unga ko'ra markaz hayvonlarni identifikatsiyalash, ro'yxatga olish, kuzatish va hisobdan chiqarish bo'yicha tadbirlarni tashkil etadi. Elektron axborot tizimini muvofiqlashtirib, real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvini ta'minlaydi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari esa hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi hamda tegishli hududda bu bo'yicha chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilishiga ko'maklashadi.

Mazkur qonun tashqi va ichki bozorlarga sifatlí chorva mahsulotlari yetkazib berish hamda veterinar osoyishtalikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Odinaxon OTAXONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



“YANGILANAYOTGAN PARKENT” KITOBI CHOP ETILDI



“Yangilananayotgan Parkent” nomli toʻplamda Prezidentimizning Parkent tumaniga tashrifi chogʻida bildirgan fikrlari, masʼullar oldiga qoʻyilgan muhim vazifalar “Parkentni eng goʻzal va obod goʻshalardan biriga aylantiramiz” nomli sarlavha bilan taqdim etilgan. Unda tumanda zamonaviy turarjoy mavzelari, ishlab chiqarish korxonalari, sayyohlik majmualari, ijtimoiy obyektlarni barpo etishga oid loyihalar, Parkentning kelajak qiyofasi qanday boʻlishi haqida aniq fakt va maʼlumotlar asosida bildirilgan fikrlar hech kimni befarq qoldirmaydi.

Nafaqat Parkent, balki yurtimizdagi ushbu goʻzal goʻshaga oʻxshash Zomin, Baxmal, Sariosiyo, Kitob va boshqa tumanlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, shu orqali yurtimizni yanada obod, xalqimiz hayotini farovon etishga oid amaliy taklif va tashabbuslar kitobxonlarda katta taassurot qoldiradi albatta.

Kitobda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Abdumannop Boʻriyev, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yoshlar murabbiysi, jurnalist Rahmatilla Sheraliyev,

tuman hokimi Sardor Isoqulov, Oʻzbekiston xalq shoirilari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, ijodkorlar Gʻayrat Sheraliyev hamda Toʻxtamurod Hasanboyev, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi Sharifa Salimova, “Gʻuncha” jurnali bosh muharriri, mohir jurnalist va adiba Difuza Shomalikova, Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi, shoir Zohidjon Olov kabi ijodkorlarning Parkent haqidagi ham tahliliy, ham samimiy maqolalari, sheʼrlari bilan tanishish mumkin.

Kitobning “Shoirilar nazmida yangragan Parkent” boʻlimida yurtimizning ushbu soʻlim goʻshasiga bagʻishlangan sheʼrlar bilan tanishasiz. “Parkentli yoshlar – Yangi Oʻzbekiston bunyodkorlari” nomli boʻlimda esa yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshayotgan parkentlik yoshlar haqida maʼlumotlar keltirilgan. Rang-barang fotosuratlar kitobning yanada jozibador, hayotiy boʻlishini taʼminlagan.

Bir soʻz bilan aytganda, “Yangilananayotgan Parkent” kitobi yurtimizda kechayotgan beqiyos yangilanishlar, xalqimiz ong u tafakkurida roʻy berayotgan oʻzgarishlarni oʻzida aks ettirgani bilan diqqatga sazovor.

MUAZZAM GʻALABAGA BAGʻISHLANGAN KITOB



Tabrikdada eʼtirof etilganidek, hech shubhasiz, milliy sportimiz solnomasiga oltin harflar bilan bitiladigan bunday yorqin natija yurtimizdagi millionlab futbol muxlislari, butun xalqimizning necha yillik orzusi edi. Futbolchilarimiz professional bilim va malakasi, tajriba va mahorati, eng muhimi, yuksak irodasi va gʻalabaga boʻlgan ishonchi bilan ana shunday orzuni real haqiqatga aylantirgani har qanday tahsinga munosib.

Mazkur kitobdan oʻrin olgan “Xalqimizni yanada birlashtirgan tarixiy yutuq” deb nomlangan maqolada esa shu yilning 10-iyun kuni poytaxtimizdagi “Bunyodkor” stadionida oʻtkazilgan jahon chempionati saralash bosqichining soʻnggi uchrashuvi keng va batafsil yoritilgan. Katta futbol bayrami sifatida oʻtkazilgan ushbu bellashuvni millionlab oʻzbekistonliklar hayajon bilan tomosha qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning futbolchilarimizni qoʻllab-quvvatlash uchun stadionga tashrif buyurgani mamlakatimizda millionlar oʻyini rivojiga qaratilayotgan ulkan eʼtiborning yana bir amaliy namunasi boʻldi.

Kitobning “Bu sening ham gʻalabangdir, ey Markaziy Osiyo!” deb nomlangan boʻlimida ustoz ijodkorlar, Oʻzbekiston xalq shoirilari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalistlar Oʻtkir Rahmat, Minhojiddin Mirzo, Qoʻchqor Norqobil, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimlari Zulfiya Moʻminova, Rustam Musurmon va boshqa koʻplab shoirilarning ulkan gʻalabaga bagʻishlangan sheʼrlari bilan tanishish mumkin.


“Gʻalaba ustiga gʻalaba, yutuq ortidan yutuq!” nomli boʻlimda esa

Samarqand davlat universiteti rektori, Oʻzbekiston Respublikasi fan arbobi, senator Rustam Xolmurodov, Yozuvchilar uyushmasi raisining oʻrinbosari Farida Afroʻz, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalistlar Ahror Ahmedov, Salim Doniyorov, mahoratli jurnalist Anvar Samadov va boshqa qalamkashlar bilan birga, Oʻzbekiston futbol assotsiatsiyasi prezidentining birinchi oʻrinbosari Ravshan Ertamatov, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sportchi Mirjalol Qosimov, futbol sharhlovchisi, “Doʻstlik” ordeni sohibi Mirzahakim Toʻxtamirzayev, futbol boʻyicha Oʻzbekiston milliy terma jamoasi bosh murabbiysi, “Oʻzbekiston itfitori” faxrii unvoni sohibi Timur Kapadze, futbol sharhlovchisi, “Shuhrat” medali sohibi Xayrulla Hamidov va boshqa sport jonkuyarlarining gʻalaba munosabati bilan bildirgan dil izhorlari keltirilgan.

“Xalqaro eʼtiroflar” boʻlimida Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, FIFA Prezidenti Janni Infantinoning futbolbagi ushbu gʻalabamiz munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga yoʻllagan tabrikdari, xorijiy davlatlarning davlat va jamoat arboblari, mashhur sportchi va murabbiylar, turli sohalar namoyandalariining tabrik va munosabatlari, xalqaro nashrlarda eʼlon qilingan tahliliy maqola va reportajlardan namunalar keltirilgan.

Mamlakatimizning nomdor sportchi va murabbiylari, soha fidoyilari haqidagi maʼlumotlar “Oʻzbekiston itfitorlari” boʻlimida kitobxonlar eʼtiboriga havola etilgan.

Nazokat USMONOVA, OʻZA muxbiri.



ZAMONAVIY INFRATUZILMA VA EKOLOGIK MUVOZANAT

Oʻzbekistonda ekoturizmni rivojlantirish va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi

Oʻzbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish uchun tabiiy imkoniyat, iqtisodiy salohiyat katta. Chunki yurtimiz oʻzining qulay jugʻrofiy joylashuvi, boy madaniy merosi, ochiq osmon ostidagi muzey-shaharlari, milliy taomlaridan tortib, etnofolklor oʻyinlari, muqaddas qadamjolari bilan sayyohlarni bemalol jalb eta oladi. Sayyohlikning, ayniqsa, ekoturizm yoʻnalishi istiqbolli boʻlib, afsuski, hali bu jabhadagi imkoniyatlardan toʻla foydalana olganimiz yoʻq. Nega?

Nuqtai nazar

Negaki, sayyohlarga ekologiya bilan yuzmayuz kelib, tabiat jozibasidan bahra olish, maroqli horidq chiqarish uchun turizm oʻchoqlarida yetarli darajada zamonaviy infratuzilma yaratilmadi. Shu bois xorijiy sayyohlar, ayniqsa, yoshlar qatlami uchun mamlakatimiz turistik jozibasini toʻliq namoyon eta olmayapti. Agar Orolboʻyi mintaqasi, Qizilqum choʻllari, Aydarkoʻl, togʻ tizmalari, suv omborlariga tutash hududlarda sayyohlik maskanlari barpo etilsa, turistlar oqimi bir necha barobar koʻpayishi, shubhasiz. Shu maʼnoda, keyingi paytda muhokamalar markazida boʻlib turgan “Sea Breeze Uzbekistan” umummavsumiy kurort majmuasi loyihasiga xavotir bilan emas, balki sayyohlik ravnaqi yoʻlidagi katta qadam, qulay imkoniyat sifatida qaralsa, toʻgʻriroq boʻlar edi.

Chorvoq suv ombori atrofida qad rostlaydigan mazkur majmua Ozarbayjonning “Agalarov Development” MChJ hamda uning qoʻshma korxonasi “Sea Breeze Uzbekistan” MChJ tomonidan bunyod etiladi. Yaʼni qurilish uchun Toshkent viloyatining Boʻstonliq tumanidagi 577 gektar maydon ajratilishi koʻzda tutilgan boʻlib, loyiha ijrosi doirasida umumiy qiymati 5 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etiladi.

Hukumat qarorida “Sea Breeze Uzbekistan” tasdiqlangan loyihani amalga oshirishda bir qator majburiyatlarni oʻz zimmasiga olishi aniq belgilab qoʻyilgan. Jumladan, qarorda atrof-muhitni muhofaza qilish va biologik xilmaxillikni saqlab qolish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Yashil maydonlar ekologik va

turistlar va valyuta oqimi koʻpayadi, byudjet hamda soliq tushumlari oshadi. “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi ham hudud uchun yangi “oʻsish nuqtasi” boʻlishi bilan eʼtiborga loyiqdir.

Shu jihatdan, “Sea Breeze Uzbekistan” umummavsumiy kurort majmuasi qurilishidan umidimiz katta. Eng avvalo, Chorvoq atrofida dam olish tartibiga solinadi, qolaversa, ekoturizm uchun zamonaviy infratuzilma yaratilib, hududning sayyohlik va investitsiyaviy jozibadorligi ortadi.

Dam olish majmuasi qurilishi bilan bu yerga ilgʻor kommunikatsiyalar kirib keladi, avtomobil yoʻllari va koʻpriklar bunyod etiladi, raqamli aloqa tarmoqlari tortiladi. Bu nafaqat loyiha hududida, balki butun mintaqa rivojlanishiga xizmat qiladi, albatta.

Birgina qurilish davrida esa minglab vaqtinchalik ish oʻrinlari yaratiladi. Bu esa Burchmulla, Yakkatut, Bolodala, Bogʻiston, Nanay qishloqlarida yashovchi aholi uchun katta imkoniyatdir. Bilagi kuchga toʻlgan qishloq yigʻirlari ish izlab chetga chiqmasdan shu yerning oʻzida daromad manbaiga ega boʻladi.

Kurort foydalanishga topshirilgach yuzlab doimiy ish oʻrinlari ochiladi. Transport, chakana savdo, turizm xizmatlari kabi sohalar orqali ish oʻrinlari soni yanada ortadi. Bundan mahalliy aholining foydalanish imkoniyati katta boʻladi. Chunki sayyohlar oqimi koʻpaygach qishloq hunarmandlari, bogʻbonu chorvadorlar oʻz mahsulotlarini sotishi uchun yangi bozor paydo boʻladi.

Kasbim taqozosiga koʻra, tabiatni asrash, dov-daraxtlarni koʻpaytirish, hududni yashillikka burkash yoʻlida izlanib, odamlar bilan koʻp muloqot qilaman, ularning fikrlarini tinglayman. Oʻzaro suhbatlarda tub aholining “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi haqida fikrlari bilan ham qiziqdim. Ularning aksariyati investitsiyaviy loyihani katta umid bilan maʼqullashyapti. Ayniqsa, loyiha doirasida Yubileyniy va Yakkatut qishloqlarini bogʻlovchi koʻprikl qurilishini eshitgan odamlar juda xursand. Majmua qurilishi asnosida hudud obod boʻlishi, ichki yoʻllarga asfalt yotqizilishi, koʻpdan buyon kutilayotgan kanalizatsiya tarmogʻiga ulanishi, pirovardida qishloqlarning infratuzilmasi yaxshilanishini kutishmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda aytilayotganidek, bu loyiha ekologiyaga zarar yetkazishi, fuqarolarning manfaatlariga zid yoki byudjet uchun ortiqcha yuk boʻlishi mumkin emas. Muhandislik yechimlar ekologik xavfsizlik va barqarorlikka qatʼiy rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Loyiha ijrosi davrida va majmua ishga tushgandan keyin chiqindilarda oqova suvlarining Chorvoq suv omboriga tashlanishiga yoʻl qoʻymaslik, bunday suvlarni Chirchiq shahri oqova suvlarni tozalash inshootiga yoʻnaltirish choralarini koʻrish “Sea Breeze Uzbekistan” MChJning asosiy majburiyatlaridan biri etib belgilangan. Bu esa yaqin atrofdagi hududlar uchun ham infratuzilma imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, koʻchatlar ekiladi, energiya tejamkor texnologiyalar joriy qilinadi, ekologik nazorat har bir bosqichda olib boriladi. Ekologik talablarga rioya etmaslik holati aniqlansa, loyihaning toʻxtatilishi va investorming yerga boʻlgan ijara huquqi bekor qilinishiga sabab boʻlishi hukumat qarorida aniqlitilish koʻrsatib qoʻyilgan.

Umumiy foydalanishdagi davlat hisobidana obyektlari – koʻpriklar va yoʻllar esa infratuzilma quriladi. Axir ulardan nafaqat turistlar, balki mahalliy aholi ham foydalanadi-da. Eng muhimi, ushbu xarajatlar investor tomonidan toʻlanadigan 240 million dollarlik infratuzilma toʻlovi hisobidan qoplanishi koʻzda tutilgan.

Xolisona aytganda, barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash va hududning turizm jozibadorligini oshirish uchun “Sea Breeze Uzbekistan” singari kurort maskanlarini qurish va infratuzilmani rivojlantirish oʻta muhim vazifaga aylangani isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bu jarayonga xorijiy investorlarni jalb qilish nafaqat kapital oqimini, balki ilgʻor texnologiyalar va standartlarni joriy etish, xalqaro talablar va dam oluvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan zamonaviy obyektlarni yaratish imkonini beradi.

Abdulkarim ABDUJAMILOV, Boʻstonliq tumanidagi Burchmulla oʻrmon xoʻjaligi direktori.

YENGIL SANOATNING MUHIM TARMOGʻI YANADA QOʻLLAB-QUVVATLANADI



Qolaversa, malakali kadrlar tayyorlash, taʼlim sifatini oshirish, xorijiy tajribani oʻrganib tatbiq qilish, mahsulot sifatini nazorat standartlarga moslashtirish, sifat nazorati tizimini takomillashtirish, sertifikatlash va brendlarni rivojlantirish juda muhim. Logistika, transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish zarur. Xomashyodan tayyor mahsulotgacha boʻlgan qoʻshimcha qiymat zanjirini yaratish, dizayn va marketingni rivojlantirish muhim. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiyani tejashga eʼtibor qaratish kerak.

Tan olish joizki, soʻnggi yillarda toʻqimachilik sanoatida sezilarli oʻsish kuzatiladi. Yangi korxonalar tashkil etildi, mavjudlari modernizatsiya qilindi. Mahsulotlar assortimenti kengaydi, sifati yaxshilandi. Eksport hajmi oshdi, yangi bozorlar oʻzlashtirildi. Paxta tolasini qayta ishlash darajasi yuksaldi. Afuski, muammolardan koʻz yumib boʻlmaydi. Davlatimiz rahbari yigʻilishda jahon bozorida narxning keskin tushishi bugun boshlanmagani, iqtisodiy kompleks ilmiy tashkilotlar bilan birga, bu borada turli ssenariylar va yechimlarni tayyorlab qoʻygan boʻlishi kerakligini koʻrsatib oʻtgan bejiz emas. Zero, tolni qayta ishlash quvvati yetarli boʻlmagan ayrim “uddaburonlar” davlatning arzon resursi hisobiga paxta “spekulyatsiyasi” bilan shugʻullanayotgani bor gap.

Qolaversa, toʻqimachilik korxonalarning tijorat kreditidan 2,2 mlrd. dollar qarzdorligi bor. Kreditlarning 90 – 95 foizi xorijiy valyutada, atigi 16 foiz korxona xalqaro sertifikatga ega. Bunday sharoitda korxonalar tashqi bozorda raqobat qilishi, kreditini qaytarishi murakkab masala. Bundan tashqari, har bir viloyatda 10 – 15 tadan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi bor boʻlsa-da, ularning brendlari bilan hamkorligini yoʻlga qoʻyish, zamonaviy standartlarga oʻtkazish ishlari oqsayotir. Andijon, Namangan, Fargʻona, Navoiy va Toshkent viloyatlarida tolni qayta ishlash quvvatlari oʻzidagi xomashyoga nisbatan 2-2,5 barobar koʻp. Shu maʼnoda, xorijdagi diplomatik vakolatxonalarnim toʻqimachilik mahsulotlari eksportiga yanada faol koʻmaklashishi muhim. Agar ular xorijdagi xaridorlarga toʻqimachilik mahsulotlarimizni koʻz-koʻz qilsa, reklamasini yuritib bersa, bundan korxonalarimiz yutadi, albatta.

Davlatimiz rahbari muammo yechimini koʻrsatib, taklif va tavsiyalarini berdi. *Birinchi*dan, ahvoli yomonlashgan ayrim korxonalarni moliyaviy sogʻlomlashtirish va tannaxrni kamaytirish choralari belgilab olindi. Joriy yilda klasterlarning kreditdan qarzdorligini garov qoʻyish sharti bilan 5 yilgacha uzaytirishga ruxsat berildi. Endilikda garov qoʻygan klasterlar faqat asosiy qarzni toʻlaydi. Qishloq xoʻjaligi jamgʻarmasi va banklarga hisoblanadigan

foizlar esa asosiy qarz toʻliq qoplanganidan keyin undiriladi. Bu orqali klasterlarda yiliga 800 mlrd. soʻm aylanma mablagʻ qoladi. Agar klasterlar ham asosiy qarz, ham foizlari oʻz vaqtida toʻlalsa, foizning jamgʻarmaga ketadigan qismining yarmi tadbirkorga qaytariladi.

*Ikkinchi*dan, klasterlarga 2022-2023-yillar hosili uchun berilgan kredit boʻyicha 1-avgust holatiga yuzaga



kelgan 377 mlrd. soʻmlik penyadan voz kechiladi. Tijorat kreditidan 2,2 mlrd. dollar majburiyati bor boʻlgan 144 ta korxonani sogʻlomlashtirish choralari ishlab chiqiladi. Faoliyatini barqarorlashtirish mumkin boʻlgan korxonalarning kredit muddati 7 yilgacha uzaytirib beriladi. Shuningdek, paxtani oʻz vaqtida, nobud qilmay terib olish uchun fermerlarga tonnasiga 1 mln. soʻmdan subsidiya ajratiladi. Korxonalar oʻz mablagʻi hisobidan paxta yetishtirsa yoki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi qoplab beriladi. Endilikda toʻqimachilik zanjiridagi korxonalarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanadi. Bunda ijtimoiy reestr boʻyicha talab bekor qilinadi, realizatsiyada toʻqimachilik ulushiga talab esa 90 foizdan 70 foizga tushiriladi.

*Uchinchi*dan, oʻz xodimlarining farzandlari uchun bogʻcha ochgan toʻqimachilik sohasi korxonalargaga xususiy bogʻchalardagi kabi har bir tarbiyalanuvchi boʻyicha subsidiya ajratiladi. Korxonalarga oʻz ehtiyoji uchun oʻrnatilgan quvshat panellarini tarmoqqa ulashga ruxsat beriladi, bu maqsadlar uchun 200 mln. dollar kredit resurslari yoʻnatilirdi va stavkaniing 10 foizgacha qismi qoplab beriladi.

Mahsulot tarkibini diversifikatsiya qilish zarurati

Yigʻilishda ishlab chiqarish va eksportni oshirishga qaratilgan tashabbuslar ham ilgari surildi. Mamlakatimizda kalava ip va matoning narxi asosiy raqobatchilardan oʻrtacha 10 – 15 foiz yuqoriligiga eʼtibor qaratildi. Sababi, ishlab chiqarayotgan mahsulotimiz tarkibida paxta 90 foiz boʻlsa, qolganlarida 30 – 40 foizi poliestar, viskoza, spandeks kabi arzon sintetik matodan iborat.

Muammoni yechish uchun esa mahsulot tarkibini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq. Paxtadan tashqari, boshqa tolalar (jun, ipak, zigʻir, kanop) va sintetik materiallardan foydalanishni

kengaytirish zarur. Bu mahsulot narxini arzonlashtirish bilan birga, assortimentni kengaytirish va sifatini yaxshilash imkonini beradi. Sintetik matolar ishlab chiqarishni mahalliyalashtirish, poliestar, viskoza, spandeks kabi sintetik matolarni ishlab chiqarish boʻyicha investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlash, xorijiy texnologiyalarni jalb etish va mahalliy xomashyo bazasini shakllantirish kerak. Bu importga qaramlikni kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga olib keladi. Xomashyodan tayyor mahsulotgacha boʻlgan qoʻshimcha qiymat zanjirini yaratish, dizayn va marketingni rivojlantirish muhim. Bu mahsulot narxini oshirish va eksportdan tushadigan daromadni koʻpaytirish imkonini beradi.

Eksport qiluvchi korxonalarga moliyaviy va tashkiliy yordam koʻrsatish, yangi bozorlarni oʻzlashtirish, eksport geografiyasini kengaytirish va xalqaro koʻrgazmalarda ishtirok etishni ragʻbatlantirish zarur. Dunyoda sunʼiy tola va aralash matoga talab yildan-yilga oshib borayotgani, mamlakatimizning importga boʻlgan qaramligini kamaytirish uchun 2028-yil 1-yanvargacha aralash mato va gazlama boʻjxona bojidon ozod qilinadigan boʻldi. Mutasaddirlarga yil yakunigacha kamida 100 ming tonnalik aralash gazlama ishlab chiqarish loyihalarini boshlash topshirildi. Shuningdek, bir nechta boʻyoq korxonalari birlashtirib, suv tozalash inshootini qurmoqchi boʻlsa, xarajatlarining bir qismi Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan qoplab beriladi.

Oʻtgan yilda 5 mln. dollardan ortiq eksport qilgan 55 ta korxonaning har birida kamida 200 nafardan ishchi ishlamoqda. Lekin bu korxonalar, asosan, viloyat markazlarida va sanoati rivojlangan tumanlarda joylashgan. Ularga koʻmak berilsa, olis va sanoat kirib bormagan tumanlarda filial ochmoqchi. Bunga Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan besh yilga 10 mlrd. soʻmgacha Markaziy bank asosiy stavkasida kredit ajratiladi. Xorijlik dizayner, texnolog, konstruktur va marketologlarning ish haqi qoplab beriladi.

Qoʻyiladigan shart oddiy. Korxonalar 200 ta ish oʻrni yaratishi va munosib ish haqi toʻlashi kerak. Mutasaddirlarga ushbu ragʻbatlarni ishga solib, joriy yilda 20 ta, keyingi yilda yana 30 ta tumanda tikuvchilik fabrikalarini ishga tushirish topshirildi. Bu ishlar Qoraqalpogʻistondan boshlanadigan boʻldi. Negaki, Qoraqalpogʻiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past boʻlgan hudud hisoblanadi. Aholining ish bilan taʼminlanganlik darajasini oshirish, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish oʻrinlari yaratish muhim vazifadir. Tikuvchilik fabrikalari bu borada katta imkoniyat yaratadi.

Davlatimiz rahbari taklifi ish oʻrinlarining yaratilishiga, aholi daromadlarini oshirishga va kambagʻallikni qisqartirishga xizmat qiladi. Tikuvchilik sohasi ayollar

uchun qulay ish sharoitlarini yaratadi. Qoraqalpogʻistonda ayollarning ish bilan taʼminlanganlik darajasini oshirish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masala. Shuningdek, Qoraqalpogʻiston paxta yetishtiruvchi hudud hisoblanadi. Tikuvchilik fabrikalarining xomashyo bazasiga yaqin joylashuvi transport xarajatlarini kamaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

Topshiriqlar uddalansa, 7 trillion soʻm daromad keladi

Yana bir masala. Jahonda savdo qoidalarining tez oʻzgarishi yoki logistikadagi uzilishlar toʻxtamayotgan sharoitda toʻqimachilik tarmogʻini rivojlantirishga alohida yondashuvlar zarur. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tashkil etilishini eʼlon qildi.

Agentlik toʻqimachilik, charm hamda ipak sanoatiga masʼul boʻladi. Va uning qoshida tajribali tadbirkorlardan iborat kengash tuziladi. Agentlikning alohida jamgʻarmasi boʻladi, davlat koʻmagi, shuningdek, toʻqimachilik korxonalariga arzon aylanma mablagʻ shu jamgʻarma orqali beriladi. Jamgʻarmaga 200 mln. dollar ajratiladi. Yangi agentlikka kengash hamkorligida tadbirkorlar bilan muloqot qilib, tannarx, ishlab chiqarish va eksport boʻyicha yechimlar ishlab chiqish, “bojxona hududida qayta ishlash” rejimi orqali tayyor mahsulot eksportini 2 barobar oshirish, kooperatsiyani kuchaytirib, past quvvatda ishlayotgan korxonalarni sogʻlomlashtirish choralarini koʻrish topshirildi.

Xalqaro konsultantlar bilan birgalikda toʻqimachilikni 2030-yilga qadar rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda charm, ipak va gilanchilik sanoatini rivojlantirish boʻyicha ham takliflarni kiritish vazifasi qoʻyildi.

Bu qadar ulkan vazifalar ortida, shubhasiz, katta marralar bor. Dunyodagi bugungi murakkab vaziyatda byudjetga pul topishning oʻzi oson kechmayapti. Rahbarlar oldiga qoʻyilgan topshiriqlar uddalansa, 7 trln. soʻm daromad koʻrilarkan. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoati jahon bozorida oʻz oʻrnini mustahkamlash, eksport hajmini kengaytirish hamda iqtisodiy oʻsishga hissa qoʻshish, yangi ish oʻrinlari yaratish va aholi farovonligini taʼminlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Baxtiyor NASIMOV, Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat institutining Yoshlar masalalari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.



xabarlari

Bokschilarimiz Osiyoda tengsiz

Tailand poytaxti Bangkok shahrida ilk bor uyushtirilgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati yakunlandi. Musobaqa ikki yo'nalish – "U-22" va "U-19" toifalarida tashkil etildi.



Ahamiyatli, mazkur qit'a bahslarida terma jamoamiz a'zolari har ikkala yo'nalishda ham tengsiz, deb topildi. Xususan, "U-22" toifasida ringga ko'tarilgan mamlakatimiz charm qo'lqop ustalari Qozog'iston (5 ta oltin, 4 ta kumush) va Xitoy (3 ta oltin, 4 ta bronza) ortda qoldirib, 8 ta oltin, 2 ta kumush hamda 4 ta bronza medalga ega chiqdi va umumjamoa hisobida birinchi o'rinda yakunlandi.

O'zbekiston "U-19" terma jamoasi ham o'z yosh toifasida Osiyo chempionatini 7 ta oltin, 3 kumush, 3 ta bronza – jami 13 ta medal bilan umumjamoa hisobida birinchi o'rinda yakunlandi.

Anvar Anvarov – shohsupada!

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi matbuot xizmati xabariga ko'ra, Vengriyaning Budapesht shahrida yengil atletika bo'yicha "Hungarian Athletics Grand Prix" turniri bo'lib o'tdi. Butunjahon yengil atletika federatsiyasining taqvimidan o'rin olgan mazkur musobaqada hamyurtimiz Anvar Anvarov ham shohsupaga ko'tarildi.



Sportchimiz bir qator Olimpiada va jahon chempionatlari g'oliblari ishtirok etgan uzumlikka sakrash sektorida bronza medalga sazovor bo'ldi. Uning so'nggi urinishdagi 8.05 metr natijasi uchinchi o'rinni ta'minladi. Mazkur ko'rsatkich yurtdoshimizga kelasi oy Tokioda bo'lib o'tadigan jahon chempionati yo'llanmasi uchun reyting ochkolarini taqdim qildi.

Superliga bahslari qizg'in davom etmoqda

Futbol bo'yicha O'zbekiston superligasining 18-tur bahslari murosasiz va kurashlarga boy kechdi.

Xususan, mazkur turda muxlislar uchta markaziy uchrashuvning guvohi bo'ldi. Farg'onada "Neftchi" va amaldagi chempion "Nasaf" jamoalari o'zaro kuch sinashdi. Bellashuvning 24-daqiqasida F. Sayfiyev qizil kartochka olib, mezbonlarni qiyin ahvonga solib qo'ydi. Biroq shunga qaramay, "Neftchi" muhim o'yinda 1:0 hisobida g'alaba qozondi. Yagona gol penaltidan unumli foydalangan J. Iskandarov nomiga yozildi.



Samarqand shahrida Vadim Abramov murabbiyligidagi "Dinamo" jamoasi "Paxtakor"ni qabul qildi. Qizg'in kurashlar ostida kechgan bahs 1:1 hisobi bilan yakunlandi. Gollar muallifi – R. Fraydey ("Dinamo"), B. Abduxolliqov ("Paxtakor").

"Andijon" – "Navbahor" bellashuvi ham muxlislarni befarq qoldirmadi. Ikkinchi davrada mag'lubiyatga uchramayotgan ikki jamoa o'rtasidagi hujumkor o'yinning taqdiri 89-daqiqada namanganliklar foydasiga hal bo'ldi: hisob – 0:1.

Turning boshqa uchrashuvlarida quyidagi natijalar qayd etildi: "So'g'diyona" – "Mash'al" 2:0, OKMK – "Qizilqum" 0:0, "Sho'rtan" – "Qo'qon-1912" 1:2, "Buxoro" – "Xorazm" 1:1, "Surxon" – "Bunyodkor" 3:1.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

Omilkorlik

Nishon tumanining Navbahor mahallasida yashovchi Ikrom Saidov tomorqadan daromad topishning hadisini olgan. Garchi u tuman gaz idorasida ishlasa-da, ishdan so'ng tomorqada mehnat qilishdan erinmaydi. Hovlisiga qadam qo'yishingiz bilan bahridilingiz ochiladi: misoli chamanzor! 12 sotix tomorqaning har qarichidan unumli foydalanilayotgani bois meva-chevadand tortib, sabzavotgacha hovlidand chiqadi. Bir tekis ekilgan uzum, anor, bodom, shaftoli, o'rik daraxtlari, poliz va sabzavot ekinlariga boqib, ko'z quvnaydi. Mahalla ahli gapning kiftini keltirib, "Ikrom Saidning bog'ini ko'rmabsan, bu dunyoga kelmabsan" deysihadi. Ularning gapida jon bor, bog'misan bog'!

– Keksalarimizda "O'z paykalingdan yeganing tatiydi", degan gap bor, – deydi Ikrom Saidov. – Chunki tomorqadan chiqqani barakali bo'ladi. Masalan, mana shu 30 tup anorning o'zidan har yili kamida 80 kilogrammdan ortiq hosil olamiz. Anorlarni Sherobod tumani tajribasi asosida parvarishlayapmiz.



YASHNAB TURGAN HOVLI

Uzum va boshqa mevali daraxtlarimiz ham yaxshi meva beryapti. Kartoshka, piyoz, pomidordand tortib, ro'zg'or uchun zarur bo'lgan barcha poliz va sabzavot turlaridan ekkamiz. Bundan tashqari, chorvamiz bor, tovuq boqamiz. Xullas, meva-chevadand tortib, go'sht, tuxum, qatiq-sut kabi mahsulotlarning hech birini bozordan sotib olmaymiz. Aksincha, iste'moldan ortganini sotamiz. Bu oila byudjeti uchun yaxshigina daromad, degani.

Ikrom Saidovning aytishicha, mahallada ko'pchilik tomorqadan unumli

foydalanadi. Avvallari suv tanqisligi bois bu ishning birmuncha qiyinchiliklari bor edi. Joriy yilda Nishon tumani hokimligi sa'y-harakati bilan "Kambag'allikdand farovonlik sari" dasturi doirasida mahallaga 3 kilometr quvur tortilib, yangi suv tarmog'i olib kelindi. Endilikda hududdagi xonadonlar ekinlarini har o'n kunda sug'orish imkoniga ega bo'lishdi. Bu mahalla ahlini tomorqasida unumli mehnat qilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shishga undamoqda.

Joriy yilning olti oyida Qashqadaryo viloyatida

19240,6 mlrd. so'mlik, o'tgan yilning shu davri bilan qiyoslaganda 4,1 foiz ko'p qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. E'tiborli tomoni, ushbu mahsulotlarning 82,1 foizi dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Bu bozorlarimizda oziq-ovqat mahsulotlarining mo'l-ko'lligi, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi bandligi, oilalarning farovon turmush tarzini ta'minlashda tomorqaning o'rni nechog'li muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

YANGI O'QUV YILIGA MUNOSIB TUHFA

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Xorazm viloyatidagi 61 ta umumta'lim maktabiga kompyuter jamlamalari, ko'p funksiyali printer va konditsionerlar yetkazib berildi. Ma'nan va jismonan eskirgan kompyuter vositalari o'rnini egallaydigan zamonaviy jihozlari yangi o'quv yili oldidan munosib sovg'a bo'ldi.

Endilikda ushbu maktablarda ta'lim oladigan o'quvchilarning raqamli texnologiyalar va IT asoslarini mukammal o'rganish imkoniyati ortdi.

– Umumta'lim maktablarining bosqichma-bosqich eng zamonaviy kompyuter vositalari bilan ta'minlanayotgani yoshlarimizning IT sohasida yuqori natijalarga erishishida muhim omil bo'lmoqda, – deydi viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Hamro Bektemirov. – Bugungi

kunda viloyatimizda yo'lga qo'yilgan "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi doirasida 4 ming nafar 7 – 11-sinf o'quvchilari IT sirlarini chuqur o'rganmoqda. Maktablarga yetkazib berilgan yangi kompyuter jihozlari mazkur loyihaning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Muxtasar aytganda, yaqin kelajakda IT sohasi o'nlik sanoq tizimi va algoritim vatani bo'lgan yangi Xorazmning "tashrif qog'ozi"ga aylanadi.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").

O'YLAMAY BOSMANG QADAMNI...

NAMANGAN SHAHRIDAGI SAMARQAND KO'CHASIDA QAD ROSTLAGAN O'N QAVATLI TURARJOY BINO QURILISHI BITISH ARAFASIDA TO'XTATILDI. NEGA?

Afsus

Pudratchi tashkilot – "Mukammal qurilish sanoat servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan olib borilgan ishlar sifatsiz bajarilgani aniqlandi. Qavatlar soni loyihadagidan bittaga oshirib yuborilgan ekan. "Bir qavat ko'paygan bo'lsa, nima qipti, shunga ham ota go'ri qozixonami?" deydiganlar topildi. Aslida, bunday qilish sirayam mumkin emas. Zero, qurilishning talabi qattiq. Ayniqsa, ko'p qavatli binolarning seysmik mustahkamligi birinchi o'rinda turadi. Bordiyu zilzila ro'y berib qolsa loyihasi to'qqiz qavatga moslab chizilgan, lekin o'n qavat qilib qurilgan inshoot tabiiy ofatga dosh bera oladimi? Quruvchilar buni o'ylab ko'rishmagan chog'i...

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida Namangan viloyati hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan MChJ rahbari Bilolxon Aminov nomiga ogohlantirish xati yuborildi. Ammo... inspeksiya talabi bajarilmadi. Natijada ish sudga oshirildi. Sud esa loyihaga zid ravishda qo'shilgan o'ninchi qavatni olib tashlash haqida qaror chiqardi.

Odamlar deyarli bitkazilgan binoning yuqori qavatni butunlay buzib tashlanayotganidan hayratlangan bo'lsa, bosh

pudratchi o'zboshimchaligi qimmatga tushganidan alamda. Chunki quruvchilar bu nojo'ya xatti-harakati uchun yaxshigina jarimaga tortildi. Qolaversa, o'ninchi qavatni tiklash uchun qurilish ishlari yalpi qiymatining o'n foizi atrofida xarajat ketgani aytilmoqda. Xo'sh, bu kimga foyda-yu, kimga ziyon?!

Loyiha talablariga amal qilmaslik, binokorlik texnologiyasi buzilishi bilan bog'liq bunday holatlar viloyatda yagona emas. Inspeksiya ma'lumotlariga qaraganda, joriy yilning olti oyi mobaynida viloyat bo'yicha 905 ta qurilish obyektida ish to'xtatilgan bo'lsa, 59 tasi muzlatilgan. Aniqlangan huquqbuzarliklari uchun mutasaddilar 1,3 milliard so'mdand ziyod jarima to'lashiga to'g'ri keldi.

– Qoidabuzarliklar ko'proq nimalarda ko'rinadi, degan savol tur'g'ishi tabiiy, – deydi hududiy inspeksiyaning qurilish-montaj ishlari ustidan nazorat qilish bo'limi boshlig'i Umidjon Turdiyev. – O'rganishlar chog'ida obyektni tegishli ro'yxatdand o'tkazmay ishni boshlash, loyihaga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritish, ruxsatsiz rekonstruksiyalar, texnologik zanjirni buzish, davlat andozasiga javob bermaydigan ashyo va materiallardan foydalanish singari holatlarni aniqlayapmiz. Tabiiyki, bunday holatda obyektlarda



ish to'xtatilib, nazoratga olinadi va kamchiqliklarni bartaraf etish talabi qat'iy qilib qo'yiladi.

Ko'p qavatli binolarni zilzilabardosh qilib qurish quruvchilar zimmasidagi birinchi darajali talab. Amalda ba'zi bosh pudratchilar tomonidan masalaga jiddiy yondashilmayotgani kuzatiladi. Misol uchun, Namangan shahrining Uychi ko'chasida qad rostlagan 12-ko'p qavatli binoning birinchi qavatidagi noturur qismida asosiy yuk ko'taruvchi va xonalarni ajratib turuvchi parda devorlar bu yerga joylashgan tadbirkor tomonidan o'zboshimchalik bilan buzib tashlangan. Davlatobod tumanining Yangi tong mahallasidagi ko'p qavatli uyni qurishda esa quruvchilar bir xonadonni ikkiga ajratib, o'rta devorni olib tashlashgan. Ayni jarayonda bu yerdagi kommunikatsiya tizimlari ham o'zgartirilgan.

Yoki Uychi tumanidagi 27-umumta'lim maktabi uchun



barpo etilayotgan ikki qavatli bino qurilishiga sifatsiz beton plitalar keltirilganligi aniqlandi. Buyurtmachi – viloyatdagi infratuzilmani rivojlantirish inijining kompaniyasi davlat muassasasi bunga befarq qaragan. O'rnatilgan sifatsiz plitalarni olib tashlashga to'g'ri keldi. Norin tumanidagi 37-maktab

binosi qurilishida esa devorlar g'ishti sifatsiz urilgan, ustiga-ustak bog'lovchi choklar yaxshi to'ldirilmagan...

O'ylab qolasan kishi, qurilayotgan bino xonalarida ertaga bolajonlarimiz o'qishadi, omonat tiklangan devorlar ular hayotiga xavf tug'dirmasligiga kim kafolat beradi?!

Sohadagi qonunbuzarliklar orasida qurilish obyektlarini tegishli ro'yxatdand o'tkazmay ishni boshlash holatlari uchrayotgan tashvishli hol, albatta. Bunday joyda nazorat, mas'uliyat susayishi tayin. Ayni toifadagilar orasida "Vostok trade invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati hammaning oldiga tushadi. MChJ quruvchilari Davlatobod tumanidagi "Yuksalish"

dahasida olti va yetti qavatli turarjoy binolarini imi-jimida qurishni boshlab yuborgan paytda ish to'xtatildi. "Stroymegabrok" MChJning Nurafshon mahallasida ro'yxatdand o'tkazilmay barpo etishga kirishilgan to'qqiz qavatli bino qurilishi taqdiri ham shunday bo'ldi.

Umuman olganda, viloyat bo'yicha pudratchi tashkilotlar 175 ta holatda obyektzni ro'yxatdand o'tkazmay turib ishga kirishgani kishini ajablantiradi. Ularning ko'pchiligida tegishli hokim va qurilish bo'limi ruxsatnomalari bo'lmagan, ayrimlarida shaharsozlik kengashi, boshqalarida ekspertiza xulosalari mavjud emas. Ko'zbo'yamachilik ham shu darajada bo'ladimi? Axir ular kichik bir obyekt emas, odamlar yashaydigan imoratni barpo etishyapti-ku! Qani bu yerda mas'uliyat, qani quruvchilik kasbiga bo'lgan hurmat?!

Turarjoylar aholi uchun ishonchli va mustahkam boshpana bo'lishi kerak. Binobarin, bunday imoratlar ko'plab avlodlarga xizmat qiladigan darajada qulay va mustahkam barpo etilmog'i shart. Buning uchun barcha imkoniyat, zamonaviy qurilish texnologiyasi, material va ashyolar yetarli. Asosiy masala binokorlarning bu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, ishga vijdondan yondashishi, son ketidan quvib sifatni unutib qo'yimasligiga bog'liq. Zotan, "Qing'ir ishning qiyig'i qirg yildan so'ng ham chiqadi", degan maqol bejiz aytilmagan.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqoq. O'fset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terilid hunda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANJILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbarchi muharrir S. Mamirov.
Musahhah Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 21.05 Topshirildi — 00.05

1 2 3 4 5 6